

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN BANK ISHI ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Bank ishi asoslari talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Bank ishi asoslari bilan

1. Banklar faoliyatini tashkil qilinishining me’yoriy huquqiy asoslari;
2. Tijorat banklari operatsiyalarini amalga oshirish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/ r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Banklar faoliyatini tashkil qilinishining me'yoriy huquqiy asoslari	Bank va bank tizimining rivojlanish bosqichlari. Bank faoliyatini tashkil qilish va bank tarkibini, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunini amaliyotda qo'llay oladi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankining maqsad va faoliyati asoslarini, Markaziy bank- yuridik shaxs sifatida yuritishini, Markaziy bankning asosiy vazifalarini, funksiyalari va operatsiyalarni, ijarat banklarining tamoyillarini, Tijorat banklarining funksiyalarini, Markaziy bankning nazorat funksiyasini, Markaziy bankni boshqarish haqida bilim va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	35 %	14 ta
2	Tijorat banklari operatsiyalarini amalga oshirish	Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini, kreditlash usullilari va ssuda hisob varaqlarining shakllari bilan ishlashni biladi. Kredit siyosatining maqsad va vazifalarini, mijozlarning kreditga layoqatlilik tushunchasini, mijozlarning kreditga layoqatligini baholashning asosiy ko'rsatkichlarini biladi. Banklarni tavakkalchiligi va ularni boshqarishni, tijorat banklarining lizing operatsiyalari, lizing operatsiyalari va ularning turlarini, faktoring operatsiyalari mohiyati, maqsadini, faktoring shartnomasining mohiyatini, banklarning Forfeyting operatsiyalarini biladi va tahlil qila oladi. Valyuta kursining mohiyati va uning turlarini, ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotish va sotib olish tartibi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.	65 %	26 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	35 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to‘g‘risida»gi qonuni. 21.12.1995 y. (12.11.2019 y. Yangi tahrirda).
3. O‘zbekiston Respublikasining «Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni. 25.04.1996 y. (05.11.2019 y. Yangi tahrirda)
4. O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida»gi qonuni, 11.12.2003 (2019 yil yangi tahrirda).
5. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi” Darslik, T., “Iqtisod-Moliya”, 2010.
6. Abdullayeva Sh.Z.. Pul, kredit va banklar. –T:. ”O‘qituvchi”, 2003.
7. Abdullayeva Sh.Z.. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. T., ”Iqtisod-moliya”, 2005.
8. Abdullayeva Sh.Z.. “Pul muomalasi va kredit” O‘quv qo‘llanma, T., “Ilm ziyo” –2009.
9. Vahobov A., Jumayev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. T., “SHarq”, 2003.
10. "Bank ishi" Y. Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh. Toshmuradov, S. Abdullayeva 2010
11. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni. -T.: 30.08.1996 y.
12. Abdullayeva Sh.Z.. Bank risklari va kreditlash. O‘quv qo‘llanma.- T.”Moliya”, 2000.
13. Sh.Z. Abdullayeva "Bank ishi", (2022)